



TASVIRIY SAN'ATNING TUR VA JANRLARINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.

Abduqaxxarova Xushro'ybegim

Namangan davlat pedagogika instituti

Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi yo'nalishi 2-bosqich talabasi

Tel: +99893 809-55-57

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11384715>

Annotatsiya: Mazkur maqolada tasviriy san'atning paydo bo'lishi, tur va janrlari haqida ma'lumotlar berilib, har bir tur va janrning o'ziga xos xususiyatlari va tasvirlash to'g'risida bilib olish mumkin.

Аннотация: В данной статье представлена информация о возникновении, видах и жанрах изобразительного искусства, можно узнать об особенностях и изображении каждого вида и жанра


Annotation: In this article, information about the emergence, types and genres of fine art can be found out about the peculiarities and description of each type and genre.

Kalit so'zlar: san'at, janr, manzara, natyurmort, batal, animalistik, portret, tarixiy, maishiy, nyu, interyer.

Ключевые слова: искусство, жанр, пейзаж, натюрморт, батальный, анималистический, портрет, исторический, бытовой, нью, интерьер.

Keywords: art, genre, landscape, still life, batal, animalistic, portrait, historical, domestic, new, interior.

Mamlakatimizda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ilgari surgan 5 muhim tashabbus, san'at sohasiga berilayotgan e'tibor va shu bilan birga barcha sohada hayotga tatbiq etilayotgan istiqbolli loyihalar, joylarda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli bunyodkorlik ishlari xalqimizning nafaqat turmush tarzini, balki dunyoqarashini ham tubdan o'zgartirib, yaratilayotgan shart-sharoitlardan unumli foydalanishni kerakligini anglatmoqda. Bunday ezgu jarayonni madaniyat va san'at rivojiga, ijod ahliga ko'rsatilayotgan yuksak e'tibor misolida ham ko'rish mumkin. Sababi, 2023 yilning 22 dekabrda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning respublika ma'naviyat va ma'rifat Kengashining kengaytirilgan majlisidagi chiqishlarida "tasviriy va amaliy san'at sohasini yanada rivojlantirish bo'yicha alohida dastur qabul qilamiz. Tanlov asosida 20 nafar iqtidorli yosh rassom va haykaltaroshlar, san'atshunos olimlar va muzeologlar amaliyot o'tash uchun xorijiy mamlakatlarga yuboriladi. Xattotlik va miniatyura san'ati ta'limini amaliyot bilan bog'lash uchun milliy uslubiy qog'oz tayyorlash bo'yicha o'quv-ishlab chiqarish ustaxonasi tashkil etilgan. Yana bir muhim masala shundaki, biz madaniyat va san'at sohasida





ta'lim sifatini jiddiy o'zgartirishimiz kerak". Bundan ko'rinib turibdiki, bugungi kunda amalga oshirilayotgan islohotlar Vatanimiz ravnaqiga munosib hissa qo'shishimiz uchun keng imkoniyatlar eshigini ochib berdi.

Tasviriy san'at asoslarini o'rganish nafaqat uning nazariyasi, hozirgi ahvoli va kelajagi, balki uning eng qadimgi tarixi, paydo bo'lishi, shakllanishi hamda rivojlanishi haqida xech bo'lmaganda elementar tarzda bo'lsa ham bilishlikni taqozo etadi. San'at tarixida tasviriy san'atning shakllanishi uch davrga bo'linadi:

1. Ibtidoiy jamoa san'ati.
2. Qadimgi Sharq san'ati.
3. Antik dunyo san'ati.

Ibtidoiy jamoa san'ati o'z ichiga dunyoning turli burchaklarida paydo bo'lgan paleolit, mezolit, neolit, bronza, temir asrlarini qamrab oladi. Qadimgi Sharq san'ati esa qadimgi Misr san'ati, Old Osiyo san'atidan tashkil topadi. Jaxon san'ati tarixida katta o'rinni egallaydigan Antik dunyo san'ati Egey san'ati, Yunoniston san'ati, Etrudi san'ati, Rim san'ati kabi qismlardan tashkil topadi. Ibtidoiy jamoa davrida taxminan 35 asr avval yer sharining deyarli barcha burchaklarida toshlarga, g'or devorlariga qushlar, xayvonlar, odam tasvirlari tushirilgan. Ular san'at darajasidagi rasmlar bo'lmasada, lekin tasviriy san'atni shakllanishiga asos bo'lgan. Bug'u tasviri paleolit davrida yaratilgan bo'lib, u Franstiyaning Fon-de-gom g'oridan topilgan. Poda tasviri tushirilgan rasm Neolit davriga xos bo'lib, u Saharaning Tassili tumanidagi toshga bo'yoq bilan ishlangan. Bunday tasvirlar dunyoning barcha burchaklaridan, shu qatori O'zbekiston xududidan ham topilgan. Jaxon tasviriy san'atining tarixi ibtidoiy jamoa davridan boshlanadi uning san'at darajasida shakllanishi qadimgi Sharq, aniqrog'i qadimgi Misr, Old Osiyo san'atida ko'zga tashlanadi.

O'zbek xalqi o'zining qadimiy yuksak madaniyati va san'ati bilan faxrlansa arziydi. Buni O'zbekiston hududida olib borilgan arxeologik qazilma ishlari yaqqol isbotlaydi. Xususan, Varaxsha, Afrosiyob, Xalchayon, Tuproqal'a, Bolaliktepa, Ayrtom, Dalvarzin tepa, Qo'yqirilgan qal'a, Ajinatepa, Teshikqal'a va boshqa bir qator qadimiy shahar, qal'a, ibodatxonalardan topilgan yuksak badiiy saviyada yaratilgan devoriy rasm, haykaltaroshlik asarlari, amaliy san'at buyumlari fikrimizning dalilidir.

Tasviriy san'at ong va tafakkurning eng ko'hna mahsuli bo'lib, insoniyat uzoq yillik tarixiy taraqqiyot asnosida atrof muhit, tabiat va voqelikka nisbatan o'z munosabatini sodda shakllarda bildirishga intilishgan. Shu alfozda tasviriy san'atning dastlabki sodda namunalari yuzaga kela boshladi. Bu insoniyatning





ibtidoiy jamoa davridan boshlanib, yer yuzida ilk sinfiy jamiyatning shakllanishi va undan keyingi davrning ijtimoiy-madaniy va tarixiy-tadrijiy jarayonlari pirovardida takomillashdi. Natijada bugungi kunga kelib tasviriy san'at alohida bir san'at turi sifatida shakllanib, turli janr, oqim, uslublarda rivojlanib bormoqda.


Bilamizki, san'atning turlari juda ko'p hisoblanadi. Ular musiqa, kino, teatr, xoreografiya, tasviriy san'at va boshqalardir. Odatda borliqni tasviriy obrazlarda, shakllarda, fazoviy kenglikda yoki tekislikda (qog'oz yuzasida, devor yuzasida va hokazolarda) aks ettiradigan san'at tasviriy san'at deb atalib, uning tur va janrlarga ajratiladi. Musavvir real borliqni, ko'rib turgan tabiat manzarasini o'z asarlarida tasvirlar ekan, u hech vaqt uni mexanik ravishda ko'chirmaydi. Aks holda, u yaratgan san'at asarlar fotograf yaratgan rasmlardan farqi bo'lmay qolishi mumkin. Musavvirning vazifasi oliyroq hisoblanadi. U hayotda mavjud bo'lgan voqea va hodisalarni tasvirlar ekan, u tasvir orqali o'zini hayajonlantirgan biron bir fikrni ilgari suradi, unda uning kayfiyati, tasavvurini, ijtimoiy hayotda sodir bo'layotgan voqea va hodisalarning mohiyatini ochib berishga intiladi, ularga o'z munosabatini bildirib, asar yaratadi.

Tasviriy san'at ilm-fan kabi dunyoni, hayotni, tabiatni, xalqlar tarixini bilishga xizmat qiladi. Tasviriy san'atning paydo bo'lishi ibtidoiy jamoa davriga borib taqaladi. Bu vaqtda kishilar voqealarni, odam va xayvonlarni toshlarga tasvirini chizib, ularni kesib turli ko'rinish va mazmunda haykallar yasaganlar. Qadimdan kishilar san'at, tabiat xodisalari va kishilarning o'zaro munosabatlari, faoliyatlariga, xulqiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi deb hisoblaganlar.¹

Shundan bo'lsa kerak tasviriy san'at o'zining tasvirlash usullari va boshqa jihatlariga qarab, grafika, rangtasvir va haykaltaroshlik kabi turlarga bo'linadi.

Grafika. Tasviriy san'atning eng ommaviy turlaridan biri grafikadir. «Grafika» so'zi yunonchada «yozaman», «chizaman» degan ma'noni anglatadi. Qalamda yoki tushda ishlangan rasmlar, kitob, gazeta va jurnallarga chizilgan illustratsiyalar, biror jismga o'yilgan gravyuralar, plakat, stend, buyumlarning etiketkalari, yorliqlari, oziq-ovqatlar o'raladigan yozuvli qog'ozlar – bularning barchasi grafika namunalari hisoblanadi.

Rangtasvir. Rangtasvir tasviriy san'atning eng jozibali va ta'sirli turi. Unda musavvir bo'yoqlar vositasida matoga, qog'ozga yoki boshqa tekis yuzaga hayotiy hodisalarni badiiy tasvirlab beradi. Rangtasvir asarlari, asosan, akvarel, tempera va moyli bo'yoqlar vositasida yaratiladi.





Haykaltaroshlik. Haykaltaroshlik – borliqni uch o‘lchovli shaklda tasvirlaydigan san’at turi. Haykalni har tarafdin aylanib tomosha qilishimiz mumkin. Haykaltarosh Ilhom Jabborovning «Amir Temur», «Ahmad al-Farg‘oniy», Jaloliddin Mirtojiyevning «Bobur», «Ibn Sino», «Alisher Navoiy», «Mirzo Ulug‘bek» asarlari haykaltaroshlikning yumaloq turiga kiradi. Agar inson qiyofasi boshidan ko‘kragigacha tasvirlangan bo‘lsa, bunday haykal byust deyiladi. 4-rasmda tasvirlangan haykal – byustdir. Byustlar buyuk tarixiy shaxslarga bag‘ishlab o‘rnatiladi. Binolarning devorlari va peshtoqlariga, tanga, medal kabi buyumlarning yuzasiga ishlangan bo‘rtma-qavariq tasvirlar haykaltaroshlikning relyefli haykal namunalariidir. Relyefli haykaltaroshlik qavariqliq darajasiga ko‘ra barelyef (kamroq o‘yiq), gorelyef (ko‘proq o‘yiq) turlariga bo‘linadi. Haykaltaroshlik asarlarini yaratishda loy, plastilin, gips, yog‘och, marmar, granit, bronza, hatto oltin, mis, kumush kabi qimmatbaho metallardan ham foydalaniladi.

Tasviriy san’at janrlari. Tasviriy san’at asarlari mavzusi, mazmuni, ishlanish uslubiga ko‘ra turli janrlarga bo‘linadi. «Janr» so‘zi fransuzcha so‘z bo‘lib, «tur» yoki «ko‘rinish» ma’nosini anglatadi. Tasviriy san’at janrlari ularning turlariga ham bog‘liq².

Rangtasvir va grafika asarlari quyidagi asosiy janrlarda yaratiladi:

1. Portret.
2. Natyurmort.
3. Manzara.
4. Maishiy.
5. Tarixiy.
6. Batal.
7. Animalistik.
8. Marinistik.
9. Afsonaviy
10. Interer
11. Nyu


Agar kartinada aniq bir insonning tashqi qiyofasi tasvirlangan bo‘lsa, bunday asar portret janriga mansub bo‘ladi. Italiyaning mashhur rassomi Leonardo da Vinchining «Mona Liza», Muhammad Nuriddinovning «Ona» asari portret janriga mansubdir.





Naturmort janridagi asarlarda jonsiz narsalar tasvirlanadi. Fransuzcha «nature morte» – «jonsiz tabiat» degan ma’noni bildiradi. Tasviriy san’atning eng ommaviy janrlaridan biri manzara janridir. Unda rassom tabiat go’zalligini tasvirlash bilan birga inson va tabiat munosabatlarini aks ettiradi. Maishiy hayot, turmushdagi voqea va hodisalarni tasvirlovchi tasviriy san’at asarlari maishiy janrga oid hisoblanadi. Biror tarixiy voqea yoki tarixiy shaxslarning tasviriga oid tasviriy san’at asarlari tarixiy janrga, jang, harbiy yurishlar tasviriga oid ishlar batal janriga, hayvonlar tasviriga oid asarlar animalistik janrga, suvli manzara tasviriga oid ishlar marinistik janrga mansub bo’ladi. Janr rassom nimani tasvirlayotganligiga qarab belgilanadi. Masalan, odam rasmini ishlansa “Portret” tabiat va shahar ko’rinishlari tasvirlansa “Manzara”, hayot va mehnat jarayonlari tasvirlansa “Maishiy” janriga xos bo’ladi. Shuningdek, tarixiy voqealarni tasvirlash tarixiy janrga, xayvonlarni tasvirlash, animal janr deb yuritiladi. Afsonaviy, marina, natyurmort nyu janrlari ham bo’ladi. “animal” janri lotincha “anima” so’zidan kelib chiqan bo’lib xayvon ma’nosini anglatadi. “Batal” janri esa fransuzcha “batay” so’zidan kelib chiqan bo’lib jang, “NYu” janri fransuzcha bo’lib yalang’och ma’nosini bildiradi. Ayrim asarlar ikki va undan ortiq janrlarga mansub bo’ladi. Masalan, portret va nyu marina va manzara v. b. Nyu janrini asosan Yevropa davlatlari rassomlari ijodida ko’rish mumkin. Sababi yalang’och tasvir yaratish bizning milliy mentalitetimizga to’g’ri kelmasligini inobatga olsak, o’zbek rassomlari ijodida nyu janridagi asarlar deyarli uchramaydi.

Rassom shu ishlayotgan tasviri orqali, avvalo, o’zining fikr va tuyg’ularini tomoshabinga yetkazishga harakat qiladi. Tomoshabin rasmda tasvirlangan olijanob, mard kishilar obrazini ko’rib, undan g’ururlanadi (chunki rassom ham g’ururlanib shu rasmni ishlagan) unga taqlid qiladi, undan o’rnak oladi. Agar asarda pastkash, razil odam tasvirlangan bo’lsa, tomoshabin undan nafratlanadi. Tomoshabin o’zida shunday xususiyatlar bo’lmasligi uchun harakat qiladi. Bundan ko’rinib turibdiki, tasviriy san’at asarlari san’atning boshqa turlari - adabiyot, kino, teatr va hokazolar kabi insondagi ajoyib fazilat borliqni bilish, uni o’rganish va sirlarini ochishga bo’lgan ehtiyojlarni qodirishga faol ta’sir ko’rsatadi. Tasviriy san’at asarlari ko’rish uchun mo’ljallangan san’atdir. Uni ko’rish orqaligina zavq olish mumkin. Kuy va ashulaning go’zalligini so’z bilan ta’riflab bo’lmaganidek, rassomning asarlarini ham so’z bilan to’liq ta’riflash mumkin emas. Tasviriy san’at asarlarini to’g’ri tushunishga oid ba’zi misollarga murojaat qilaylik.





Tasviriyy san'at asarlarini kuzatganda undagi har bir obrazning psixologik kechinmalari qanday yechilganligini, ularning tevarak-atrofga bo'lgan munosabatini to'g'ri ko'rsatib bera olish ham muhim o'rinni egallaydi. Shuning uchun rassom ishlatgan ranglar jilosiga ham, bo'layotgan voqeaning kompozitsiyasiga ham, rassomning ishlash mahoratiga, tanlangan har bir shakl xarakteriga, umumiy rang gammasi - koloritiga, yuzaning xarakteriga (masalan, rassom ishlagan holat yuzasining silliqligi yoki g'adir-budurligiga) ham e'tibor berish, ular nima uchun shunday olinganiga javob topishga harakat qilish zarur. Slumdagina tasviriyy san'at asarlarining asl mohiyatini tushunib yetish va ularni to'g'ri tahlil qila olishni o'rganish mumkin.

Xulosa. Tasviriyy san'at turlarining o'zi ham kichik turlarga bo'linadi va o'z xususiyatidan kelib chiqib, tasvirlanadi. Shuningdek tasviriyy janrlari o'zining xilma xilligi va tasvirlashda xarakteri bilan bir-biridan farq qiladi. Har bir janr o'zga bir dunyo desak mubolag'a bo'lmaydi. Rassomlar ijodiga nazar soladigan bo'lsak, har bir musavvir o'z uslubiga ega. Janrlarda tasvir yaratish, ranglarda ishlash, asarning xarakteri, xususiyati, tomoshabinga ta'siri undagi asosiy farqlarni yaqqol ko'rsatadi. Tasviriyy san'at tur va janrlarini so'z bilan ta'riflash qiyindir. Sababi yaratilgan asarni ko'rmay turib undagi xususiyatini tasavvur qilish, asar haqida fikr yuritish va tasvirlangan jarayonni izohlash juda mushkul. Umumiy xulosa qiladigan bo'lsam tasviriyy san'at asarlari insonlarni badiiy-estetik qobiliyatlarini rivojlantiradi. Ularda tabiatga bo'lgan qiziqishlarini orttiradi. Milliy qadriyatlarimizni, urf-odatlarimizni, qadimiy me'morchilik obidalarini kelajak avlodga yetkazib berishda asosiy omillardan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Rahim Hasanov. Tasviriyy san'at asoslari. T.2008
2. Boltaboyev A. BO'LAJAK O'QITUVCHINING KASBIY-PEDAGOGIK IJODKORLIGINI RIVOJLANTIRISH SHART-SHAROITLARI //INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE on the topic:"Priority areas for ensuring the continuity of fine art education: problems and solutions". – 2023. – T. 1. – №. 01.
3. Boltaboyev, Azizbek. "In pointing natyurmort it's working methods and peculiarities." The American Journal of Applied sciences (2021).
4. Boltaboyev A. Color Relationships in Paintings //CENTRAL ASIAN JOURNAL OF ARTS AND DESIGN. – 2023.
5. Boltaboyev A. O'QUV JARYONIDA QALAMCHIZGI VA QORALAMALARNI BAJARISHDA TALABALARNI KASBIY-PEDAGOGIK KOMPETENSIYASINI RIVOJLATNIRISH TEXNALOGIYASI //Namangan davlat universiteti Ilmiy axborotnomasi. – 2023. – №. 7. – C. 553-559.





6. Boltaboyev A. Tasviriy san'at darslarida talabalarning o'quv jarayonida qoralamalar bajarish texnikalari //Жамият ва инновациялар–Общество и инновации–Society and innovations. – 2023.
7. Hasanboy o'g'li B. A. et al. METHODS OF USING MODERN TECHNOLOGIES OF TEACHING IN PRIMARY SCHOOLS //Galaxy International Interdisciplinary Research Journal. – 2021. – Т. 9. – №. 12. – С. 960-963.
8. Boltaboev A. HEORETICAL BASIS OF THE DEVELOPMENT OF THE SPATIAL PERSPECTIVE IMAGERY IN THE PERFORMANCE OF PENCIL AND DRAFT IN THE PROCESS OF STUDENT EDUCATIONAL PROCESS //Solution of social problems in management and economy. – 2023. – Т. 2. – №. 2. – С. 12-17.
9. Xasanboy o'g'li, B. A. (2024). TALABALARNI KASBIY-PEDAGOGIK QOBILYATLARINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI. Gospodarka i Innowacje., 43, 114-117.
10. Xasanboy o'g'li B. A. et al. Innovatsion Yondashuv Asosida Bolalarini Dekorativ Rasm Chizishga O 'Rgatishning Didaktik Ahamiyati //Journal of Creativity in Art and Design. – 2024. – Т. 2. – №. 2. – С. 11-13.
11. Xasanboy o'g'li, Boltaboyev Azizbek, and Ahmedov Davlatbek Saloxiddin o'g'li. "Psychological Features of Adolescence." Eurasian Research Bulletin 4 (2022): 25-27.
12. Boltaboyev A. TALABALARNI KASBIY-PEDAGOGIK QOBILYATLARINI RIVOJLANTIRISHNING MECHANIZMI VA USULLARI //Академические исследования в современной науке. – 2024. – Т. 3. – №. 8. – С. 140-146.
13. Boltaboev A. K., Abdirasilov S. F. METHODOLOGICAL BASIS OF DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL-PEDAGOGICAL COMPETENCE IN STUDENTS BY MAKING PENCIL DRAWINGS AND DRAFTS //Экономика и социум. – 2023. – №. 3-2 (106). – С. 57-60.

